

**KORONAVIRUS INFEKSIYASINING KLINIK KECHISHIDAGI
O'ZGARISHLAR****Alimova Ozoda Bekmurodovna**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti fiziologiya kafedrasida stajyor assistenti

Neymatov Faxriyor Farxod o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Davolash fakulteti 101- guruh

Renatova Gavhar Sohibjon qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Davolash fakulteti 101- guruh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6643290>

Annotatsiya. O'tkir respirator virusli infeksiyalar – viruslar qo'zg'atadigan, kelib chiqishi bir-biriga o'xshash o'tkir infeksiyon kasalliklarning umumiy guruhi hisoblanadi. Ular asosan nafas yo'llari shilliq pardalariga zarar yetishi bilan kechadi. O'tkir respirator kasalliklarning qo'zg'atuvchilariga adenoviruslar, paragripp viruslari, koronaviruslar, rinoviruslar va boshqa viruslar guruhi kiradi. Ana shunday virusli infeksiyalardan biri 2019-yil dekabr oyida Xitoyning Xubey provinsiyasi Uxan shahrida kelib chiqishi noma'lum pnevmoniya epidemiyasi ya'ni koronavirus kasalligi (COVID-19) qayd etilgan edi. COVID-19 ning global miqyosda tarqalishi va ushbu kasallik tufayli minglab insonlarning o'limi tufayli Jahon sog'liqni saqlash tashkilotini 2020-yil 12-martda pandemiya deb e'lon qilishiga olib keldi. O'zbekistonda virusni yuqtirish holati dastlab 2020-yil 15-mart kuni qayd etildi. Bugungi kunga qadar butun dunyo mamlakatlari bu pandemiyadan katta zarar ko'rdi. Jumladan, qashshoqlikning ortishi, dunyodan ko'z yumgan insonlar hayoti va iqtisodiy qoloqliklar bunga yaqqol misoldir.

Kalit so'zlar: COVID-19, pandemiya, PCR testi, antigen testi, SARS-COV-2, karantin, izolyatsiyaga olish;

**ИЗМЕНЕНИЕ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ КОРОНАВИРУСНОЙ
ИНФЕКЦИИ**

Аннотация. Острые респираторные вирусные инфекции представляют собой общую группу острых инфекционных заболеваний, вызываемых вирусами сходного происхождения. В основном они обусловлены поражением слизистых оболочек дыхательных путей. К возбудителям острых респираторных заболеваний относятся аденовирусы, вирусы парагриппа, коронавирусы, риновирусы и другие вирусы. Одна такая вирусная инфекция была зарегистрирована в декабре 2019 года в Ухане, провинция Хубэй, Китай, эпидемия пневмонии неизвестного происхождения, то есть коронавирусной болезни (COVID-19). Глобальное распространение COVID-19 и гибель тысяч людей из-за этого заболевания привели к тому, что Всемирная организация здравоохранения объявила 12 марта 2020 года пандемией. Впервые вирус был зарегистрирован в Узбекистане 15 марта 2020 года. На сегодняшний день страны по всему миру сильно пострадали от пандемии. Примеры включают рост бедности, гибель людей и экономическую отсталость.

Ключевые слова: COVID-19, пандемия, ПЦР-тест, тест на антиген, SARS-COV-2, карантин, изоляция;

CHANGES IN THE CLINICAL COURSE OF CORONAVIRUS INFECTION

Abstract. Acute respiratory viral infections are a common group of acute infectious diseases caused by viruses of similar origin. They are mainly caused by damage to the mucous

membranes of the respiratory tract. The causative agents of acute respiratory diseases include adenoviruses, parainfluenza viruses, coronaviruses, rhinoviruses, and other viruses. One such viral infection was reported in December 2019 in Wuhan, Hubei Province, China, an epidemic of pneumonia of unknown origin, i.e. coronavirus disease (COVID-19). The global spread of COVID-19 and the deaths of thousands of people due to this disease led the World Health Organization to declare March 12, 2020 a pandemic. The virus was first reported in Uzbekistan on March 15, 2020. To date, countries around the world have been hit hard by the pandemic. Examples include rising poverty, loss of life, and economic backwardness.

Keywords: COVID-19, pandemic, PCR test, antigen test, SARS-CoV-2, quarantine, isolation;

KIRISH

Yangi koronavirus SARS-CoV-2 paydo bo'lgandan beri olimlar uning kelib chiqishi haqida bahslashishmoqda. SARS-CoV-2 laboratoriya manipulatsiya mahsuloti ekanligi tahmin qilingan. Biroq, genetik ma'lumotlar bu farazni qo'llab-quvvatlamaydi va SARS-CoV-2 ilgari ma'lum bo'lgan virus genetik tuzilmasidan kelib chiqmaganligini ko'rsatdi.

O'tkir respirator sindromli koronavirus 2 (SARS-CoV-2) 2020-yil yanvar oyida Xitoyning Xubey provinsiyasi Uxan shahrida topildi. Shundan keyin ushbu virus butun dunyo mamlakatlari bo'ylab tarqaldi va uni 527 000 000 kishi yuqtirgan va 6 028 000 kishining o'limiga olib keldi. O'zbekistonda esa 239 000 ta kasallanish holati aniqlangan, shundan 1637 ta fuqaro vafot etgan. Hozirgi koronavirus kasalligi butun dunyo bo'ylab favqulodda holat hisoblanadi, chunki uning tarqalish tezligining yuqoriligi va yuqori o'lim darajasi jiddiy buzilishlarni keltirib chiqardi. Dunyo bo'ylab COVID-19 qo'zg'atuvchisi bo'lgan og'ir o'tkir respirator sindromli koronavirus 2 (SARS-CoV-2) bilan kasallanganlar soni tez sur'atlar bilan o'sdi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda asosan pnevmoniya, o'tkir respirator distress sindromining og'ir belgilari va ko'p a'zolar yetishmovchiligi rivojlanishi mumkin.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Koronavirus infeksiyasi COVID-19 odamlarning turli guruhlariga turli darajada ta'sir qiladi. Ko'pgina infeksiya yuqtirgan odamlarda kasallik yengil va o'rtacha darajada bo'lib, kasalxonaga yotqizishni talab qilmaydi. SARS-CoV-2 normal immunitet reaksiyalarini buzadi, bu esa immunitet tizimining zaiflashishiga va COVID-19 bilan og'ir bemorlarda nazoratsiz yallig'lanish reaksiyalariga olib keladi. Bu bemorlarda limfopeniya, limfositlar faollashuvi va dizfunksiyasi, granulositlar va monositlar anomaliyalari, sitokinlarning yuqori darajasi, immunoglobulin G va umumiy antikorlarning ko'payishi kuzatiladi.

- Tez-tez kuzatiladigan alomatlar:
- haroratning oshishi;
- yo'tal;
- charchoq;
- hid va ta'm sezgilarining yo'qolishi;
- Ba'zi infeksiya yuqtirgan odamlarda kuzatilgan holatlar:
- tomoq og'rig'i;
- bosh og'rig'i;
- turli xil og'riqli hislar;

- diareya;
- terida toshmalar toshishi yoki teri rangining o'zgarishi;
- ko'zning qizarishi;

TADQIQOT NATIJALARI

Bemorning ahvoriga qarab davolanish joyini aniqlashda bemorda kasallik alomatlarining og'irligiga va mintaqada mavjud bo'lgan tibbiy resurslarga qarab, bemorlarni kuzatish va

Kasallik	COVID-19 infeksiyasi
Virus shtammi	SARS-CoV-2
Birinchi holat	Xitoy, Xubey, Uxan
Sana	2019-yil dekabr
Tasdiqlangan holatlar	517 371 131
Faol holatlar	38 958 629
Tuzalishlar	472 161 018
O'limlar	6 251 484
Davlatlar soni	192

izolyatsiya qilish uchun turli xil davolash joylari tanlanishi mumkin. Xitoy ko'rsatmalariga ko'ra o'ziga xos tasnif quyidagicha:

- A)Asimptomatik holatlar: ular tasdiqlanmagan va yangi holatlar sifatida qaralmasligi kerak. Asosiy davolash chorasi – 14 kunlik markazlashtirilgan karantin va mahalliy sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan olib boriladigan keyingi monitoringdir. Agar bu holatlarda uyda izolyatsiya qilingan bo'lsa, uy a'zolari boshqa xonada bo'lishlari kerak yoki karantindagi odamdan kamida 1 metr masofani saqlashlari kerak bo'ladi;

- B)Shubhali holatlar: o'z-o'zini parvarish qilish qobiliyatiga ega, yoshi 65 yoshda bo'lgan, nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari va ruhiy salomatlik muammolari kabi birlamchi kasalliklari bo'lmagan bemorlar ixtiyoriy ravishda sog'liqni saqlash muassasasiga borishlari kerak. Karantin kuzatuv vaqtida ular bitta xonada qolishi va xonani tasodifiy tark etmasliklari kerak;

- C)Yengil holatlar: agar mavjud bo'lsa, ular kabinali shifoxonada yoki sog'liqni saqlash tizimida bemorlar ko'pligi tufayli kasalxonaga yotqizish imkoni bo'lmasa, uyda davolanadi. Bunday holda, ularni oila a'zolari kuzatib borishlari va ularga g'amxo'rlik qilishlari kerak. Agar bemorlar bir xonada bo'lsa, yotoqlar orasidagi masofa 1.2 metrdan kam bo'lmasligi kerak va xona o'z jihozlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak;

- D)Og'ir yoki o'ta og'ir holatlar: dastlab og'ir kasal deb tashxis qo'yilgan bemorlar davolanish uchun zudlik bilan intensiv terapiya bo'limiga yotqizilishi kerak. Holati yengildan og'irgacha o'zgartirgan bemorlarni kasalxonaga yotqizish va ko'chma kasalxonada yoki uyda

skrining oldidan vrach konsultatsiyasidan so'ng, ular kasalxonaning muhim kuzatuv va davolash zonasiga o'tkazilishi kerak;

MUHOKAMA

COVID-19 uchun burun tamponining testi hisoblanadi. Ushbu test COVID-19 ga tashxis qo'yish uchun aniq va ichonchli testdir. Testdan 2 xil natija olish mumkin: ijobiy yoki salbiy. Agar tekshiriluvchida test ijobiy natijani bergan bo'lsa, unda COVID-19 borligini anglatadi. Aksincha, tekshiriluvchida test salbiy natijani berganda, unda COVID-19 bo'lmaganligini anglatadi. Sinov natijalarini namunalar olingandan keyin 24 soat ichida olish mumkin bo'ladi, lekin ba'zida namunaning laboratoriyaga yetib borishiga qarab bir necha kun ketishi mumkin. Antigen test – bu virus yuzasidagi antigenlar deb ataladigan oqsillarni aniqlaydi. Ushbu test natijasi odatda 15 dan 30 minutgacha davom etadi. Tez antigen testlari kasallik boshlangandan keyin bir necha o'tib qo'llanilganda aniq natija beradi. Antigen testi odatda tezroq natija bersada, lekin PCR testiga nisbatan kamroq sezgir hisoblanadi.

XULOSA

Covid-19 infeksiyasi butun organizm tizimini misli ko'rilmagan holatga keltirishi mumkin. U organizmni immunitetini pasayishiga olib keladi. An'anaviy ravishda yuqumli kasalliklarning 70% i maxsus tekshirilib, laboratoriyalarda aniqlanadi COVID-19 pandemiyasi davrida bu hissa yanada yuqoriroq va 100%ga yaqin bo'ldi, chunki bemorni qabul qilish, izolyatsiya qilish yoki unga javob berish kabi qarorlar laboratoriya natijalari asosida qabul qilinadi.

Covid-19 bilan og'rigan bemorlarda limfopeniya va yuqori sitokin darajalari namoyon bo'ladi, bu kasallikning rivojlanishining asosiy belgilari hisoblanadi. Shuning uchun limfopeniyani yaxshilash va yallig'lanishni kamaytirish COVID-19 bilan kasallangan bemorlar uchun samarali terapevtik muoloja hisoblanadi. Kasallikdan himoyalanihning eng yaxshi usuli shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, kasallanish holati aniqlangan bemorlar bilan kontaktda bo'lmaslik, to'g'ri ovqatlanish qoidalariga amal qilish, doka niqoblardan foydalanish va COVID-19 ga qarshi vaksinalardan birini olish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Косимов И.А., Шаджалилова М.С.,
2. Шамансурова Ш.Ш. Клинико эпидемиологические
3. особенности и профилактика коронавирусной инфекции.
4. /Метод.пособие. -Ташкент.2020.-С.- 17.
5. 2. Туйчиев Л.Н. ва хдм муаллиф.
6. Коронавирус инфекциясининг этиологияси, эпидемиологияси, клиник хусусиятлари, даволаш ва олдини олиш чора-тадбирлари. /Услубий кулланма.
7. Тошкент, 2020. 34 б.
8. 3. Обзор нового коронавируса 2019 года
9. (COVID - 19), CDC, 1 февраля 2020 г.